

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA
O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT
DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI
UNIVERSITETI

**ESKI O‘ZBEK YOZUVI FANIDAN
MUSTAQIL ISHLAR TO‘PLAMI**

*Oliy o‘quv yurtlarining 5111200 – O‘zbek tili va adabiyoti va 5120100 –
Filologiya va tillar o‘qitish (o‘zbek tili) ta‘lim yo‘nalishlari talabalari uchun
o‘quv qo‘llanma*

TOSHKENT – 2020

I. Azimov, M. Tojiboyeva va A. G‘oziyevlar tomonidan 5111200 – O‘zbek tili va adabiyoti va 5120100 – Filologiya va tillar o‘qitish (o‘zbek tili) ta’lim yo‘nalishlari talabalari uchun tayyorlangan

“Eski o‘zbek yozuvi fanidan mustaqil ishlar to‘plami” o‘quv qo‘llanmasiga

ANNOTATSIYA

Mazkur o‘quv qo‘llanma oliy ta’lim muassasalarining 5111200 - O‘zbek tili va adabiyoti va 5120100 – Filologiya va tillar o‘qitish (o‘zbek tili) ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha tahsil olayotgan talabalar uchun mo‘ljallangan. O‘quv qo‘llanmada talabalarni eski o‘zbek yozuvi fanidan olgan nazariy bilimlarini amalda mustahkamlash, o‘z ustida mustaqil ishlash maqsadi ko‘zda tutilgan.

Tuzuvchilar:

Azimov Inomjon filologiya fanlari nomzodi, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti dotsenti

Tojiboyeva Mahbuba filologiya fanlari nomzodi, Muqimiy nomidagi Qo‘qon davlat pedagogika instituti dotsenti

G‘oziyev Alisher Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti katta o‘qituvchisi

Taqrizchilar :

Sulaymonova Nigora filologiya fanlari nomzodi, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti dotsenti

Shoaliyeva Nargiza filologiya fanlari nomzodi, O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi, Mumtoz sharq adabiyoti va manbashunoslik kafedrasida katta o‘qituvchisi

© Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti, 2020

© I. Azimov, M. Tojiboyeva, A. G‘oziyev, 2020

SO‘Z BOSHI

Mustaqil ta’limni amalga oshirish bugungi kun ta’lim jarayonining muhim bo‘g‘inlaridan biri sifatida joriy etilgan bo‘lib, uni tashkil qilish jarayonlari va uslublari yildan-yilga takomillashtirilmoqda. Mustaqil ta’lim talabalarning qo‘shimcha bilim va ma’lumotlarga ega bo‘lishi, o‘z ustida ishlash malakasi va mas’uliyatining shakllantirilishi, mazkur jarayonda hosil qilingan turli malakalarning takomillashtirilib borilishi asnosida talabalarning kelgusida yetuk va malakali mutaxassislar bo‘lib yetishishlari uchun asos bo‘lishi lozim bo‘lgan omillardan biri sifatida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Fanning muayyan qismlarini o‘rganish va o‘zlashtirishni talabalar tomonidan mustaqil ravishda amalga oshirilishi mustaqil ta’limning mazmunini tashkil qilar ekan, uning tashkil etilishi, aniq maqsad va vazifalarni qo‘yilishi hamda yo‘nalishlarni aniqlanishi uning amalga oshirilishini osonlashtiradi. Ayni vaqtda talabalarning mustaqil ta’limni amalga oshirish jarayonida e’tibor berishi lozim bo‘lgan asosiy jihatlar, mavzularning asosiy xususiyatlari, ularning tadqiq qilinishi va o‘rganilish uslublari, mustaqil ishlarning tayyorlanish usullari va turlari, mavzularning mazmunidan kelib chiqqan holda mustaqil topshriqlarning bajarilish turlarining xilma-xilligi talabalarning bu jarayonni to‘liq bajarish va maqsadga erishishi imkoniyatlarini oshiradi.

Mustaqil ta’limni amalga oshirilishi jarayonida quyidagi ishlar bajarilishi zarur deb belgilanadi:

1. Mustaqil ta’limni tashkil qilish namunaviy va ishchi o‘quv rejalari hamda malaka talablariga mos ravishda amalga oshiriladi;
2. Mustaqil ta’limni tashkil qilish va uni amalga oshirish kafedra yig‘ilishida ko‘rib chiqilib, ma’qullanadi;
3. Mustaqil ta’limni tashkil qilish va mustaqil ta’lim uchun belgilangan mavzular fan dasturi va ishchi dasturda belgilangan tartibda ishlab chiqilib, tasdiqlanadi;

4. Mustaqil ta’lim uchun ajratilgan mavzular muayyat bir mavzuning biror qismini yoritib bergan holda umumiy tasavvur hosil qilish va ayni vaqtda bilim olish uchun yo‘naltiriladi;

5. Mustaqil ta’limni tashkil qilishda mavzular yuzasidan adabiyotlar (manbalar) ro‘yxatini oldindan talabalarga taqdim qilinadi;

6. Mustaqil ta’limni tashkil qilishda aniq maqsad belgilanadi va rahbar (o‘qituvchi) tomonidan aniq topshiriq qo‘yiladi;

7. Mustaqil ta’limni tashkil qilish jarayonida mustaqil ta’lim mavzularini tayyorlash shakllarining avvaldan belgilab berilishi (reja oddiy yoki murakkab) asosidagi kospekt, tezislar, xronologiya, jadvallar va boshqa shakllarda yozma, og‘zaki yoki ijodiy ish (referat yoki taqdimot) tarzida amalga oshiriladi;

8. Mustaqil ta’lim natijalarini rahbar (o‘qituvchi) tomonidan tekshirish jarayoni (shakllari) va uning baholash tartiblari talabalarga avvaldan taqdim qilinadi;

Mustaqil ta’limni tashkil qilishdan ko‘zlangan asosiy maqsad talabalar bilimini boyitish va ularni kelgusida har tomonlama yetuk va malakali mutaxassislar bo‘lib yetishishlari uchun zamin hozirlashdir.

Mustaqil ta’lim jarayonini tashkil qilish va uni amalga oshirish jarayonida har bir talaba o‘ziga topshirilgan mustaqil ta’lim mavzusini belgilangan tartibda o‘rganishi, tayyorlashi va bu jarayonda bevosita faol ishtirok etish shartdir. Bu mustaqil ta’limni tashkil qilishdagi eng muhim omildir.

Mualliflar

MASHG‘ULOT MATERIALLARINI BAJARISH USHUN METODIK TAVSIYALAR

1. Mustaqil ishni bajarishdan oldin darsliklardagi mavzularni chuqur mutolaa qilish va puxta o‘zlashtirish zarur.
2. Mustaqil ish topshiriqlari alohida daftarga yoziladi.
3. Mustaqil ish topshiriqlari namunada berilgan shaklda to‘liq bayon etilishi kerak.
4. Talaba mustaqil ish topshiriqlarida berilgan vazifalarni yaxshi tushunmasa o‘qituvchi tomonidan tushuntiriladi.
5. Topshiriqlardagi yozilishi lozim bo‘lgan bandlarni xusnixat qoidasiga amal qilgan holda yozish kerak.
6. Talaba munfasil va muttasil harflar xususiyatlarini mashg‘ulotlarda berilgan sxemalardan foydalangan holda bajarishlari lozim.
7. To‘liq bajarilmagan va noto‘g‘ri bajarilgan topshiriqlar o‘qituvchi ko‘magida nihoyasiga yetkaziladi.
8. Talaba mustaqil tayyorlagan mazkur ish himoyasida matnni sharxlab (o‘zlashgan so‘zlarning yozilishi, lug‘aviy va matndagi ma’nolarini izohlab berishi) o‘qishi lozim.
9. Har bir mavzuga ajratilgan topshiriqlar baholab boriladi.
10. Mustaqil ishni bahosi topshiriqlar baholari umumlashtiriladi va baholar yig‘indisini topshiriqlar soniga bo‘lish orqali o‘rtacha baho aniqlanadi.


NAMUNA UCHUN MASHG'ULOT ISHLANMASI

1-topshiriq. Arab yozuvidagi harf yasovchi unsurlar haqida ma'lumot bering.


Arab alifbosida harflar asosan o'n sakkiz asosiy unsur ya'ni belgilardan iborat. Arablar ushbu unsurlarning ost va ustlariga nuqtalar qo'yish orqali alifbodagi harflar sonini 28 taga yetkazgan. Keyinchalik shu alifbo asosida O'rta Osiyoliklar ham o'zlarining yozuvlarini shakllantirishdi. Shu tariqa arab alifbosiga asoslangan arab-o'zbek alifbosi yuzaga keldi. Mazkur alifboga to'rtta harf qo'shilgan va harflar soni o'ttiz ikkiga yetgan. Alifbodagi to'qqizta unurning har biri bir necha yangi harflar hosil qilishda ishtirok etadi. Qolgan to'qqiztasi esa har biri bittadan harf yasalişhida ishtirok etadi. Bu unsurlar quyidagilar:

ب ح د ر س ص ط ع ك


ب unsuri orqali hosil qilingan harflar




ح unsuri orqali hosil qilingan harflar




ر unsuri orqali hosil qilingan harflar




د unsuri orqali hosil qilingan harflar




س unsuri orqali hosil qilingan harflar




ص unsuri orqali hosil qilingan harflar




ط unsuri orqali hosil qilingan harflar




ع unsuri orqali hosil qilingan harflar



ك unsuri orqali hosil qilingan harflar



Qolgan harf yasovchi unsurlar quyidagilar:



Har bir harfni yozishda nuqtalarning o‘rni va miqdoriga katta ahamiyat berishimiz lozim. Chunki bir nuqta kam yoki ko‘p qo‘yilsa yoki o‘rni almasha, aksincha butunlay qo‘yilmasa, harf boshqa harfni ifoda etib qoladi va so‘zning ma‘nosi o‘zgarishini kuzatishimiz mumkin.

Masalan: «pand» (ma‘nosi: *pand, nasihat, o‘git*) so‘zidagi pe harfining uch nuqtasi o‘rniga bir nuqta qo‘yilsa pe harfi be harfiga o‘zgarib «band» (ma‘nosi: *tugun, biror yumush bilan band bo‘lish*) so‘ziga, «sher» so‘zidagi shin harfining nuqtalari tushib qolsa, shin harfi sin harfiga o‘zgarib «sir» so‘ziga, «og‘iz» so‘zidagi ze harfining nuqtasi qo‘yilmasa «ze» harfi «re» harfiga o‘zgarib «og‘ir» so‘ziga aylanib qoladi

Shundan ko‘rinadiki, arab alifbosiga asoslangan arab-o‘zbek yozuvida nuqtalarning miqdori va o‘z o‘rniga qo‘yilishi juda ham muhim hisoblanadi. Shu bilan birga, o‘quvchining yozuvga nisbatan mas‘uliyatini oshiradi va uning xotirasini yanada charxlashga sabab bo‘ladi.

2-topshiriq. بى «bi» old qo‘shimchasi haqida ma‘lumot bering va misollar keltiring.


Fors tilidan kirib kelgan «bi» بى inkor ko‘makchisi eski o‘zbek yozuvi imlosida «bi» بى yozilsa-da, talaffuzda «be» deb o‘qiladi. Bu ko‘makchi so‘zning oldida keluvchi old qo‘shimcha bo‘lib, inkor ma‘no bildiruvchi so‘z yasaydi. Yozilishda so‘zga qo‘shilib ham, qo‘shilmay ham yozilishi mumkin. Har ikki hoalt ham to‘g‘ri hisoblanadi. Masalan:

بى بها	bebaho	bahosiz
بى آبرو	beobro‘	obro‘siz
بى حرمت	behurmat	hurmat-siz
بى اعتبار	bee’tibor	e’tiborsiz
بى مدار	bemador	madorsiz
بى مصلحت	bemaslahat	maslahatsiz

3-topshiriq. Berilgan matnni ko‘chiring va matnda uchragan ligaturalarni aniqlang hamda tahlil qiling.

قرا تاش سیره هم بولماس لاجورد
تازه قلبگا یوقماس اصلا چانگ و گرد
قولاق سالگین پوریایولی سوزیگا
قورققلاردین بیران چیقانمیدی مرد

Yuqoridagi to‘rtlik Pahlavon Mahmud qalamiga mansub bo‘lib, to‘rtlikda –lo va –ga tovushlar birikmalarini ifodalashda ligatura (qo‘shaloqharf) lardan foydalanilgan. Masalan:



Lom va alif harflari qo‘shilganda لا ko‘rinishida gof va alif harflari qo‘shilganda esa گا ko‘rinishida bo‘ladi.

4-topshiriq. Berilgan matnni arab yozuviga o‘giring va matnda uchragan munfasil harflar xususiyatini tushuntiring.

ABU NASR FOROBIY

Abu Nasr Forobiy qomusiy bilim egasi bo‘lgan. Uning falsafa, mantiq, matematika, fizika, kimyo, tabobat, tabiat hodisalari, tilshunoslik, shariyat, notiqlik, sanat, ahloq, talim-tarbiya va boshqa sohalarga oid asarlari keyinchalik boshqa tillarga tarjima qilinib, dunyoga keng tarqalgan.

Farobiy 160 dan ortiq asar yaratgan bo‘lsa-da, afsuski ulardan bizga 40 ga yaqini yetib kelgan xolos.

Forobiy kamtar va kamsuqum inson bo‘lib, faqirona kun kechirgan. Abu Nasr saroy olimi bo‘lishni istamagan.

Umri oxirida Misrda, so‘ng Damashqda yashab o‘sha yerda vafot etgan.

Ulug‘ sharq olimining merosi keyingi avlodlar uchun katta xazinadir.

ابو نصر فرابی

(۸۷۵-۹۵۰)

ابو نصر فرابی قاموسی بیلیم ایگاسی بولگان. اونینگ فلسفه، منتق، ماتیماتیکه، فیزیکه، کیمیا، طبابت، طبیعت حادثه لاری، تیلشناسلیک، شعریت، ناطقلیک، صنعت، احلاق، تعلیم - تربیه و باشقا ساحه لارگا عاید اثرلاری کیینچالیک باشقا تیللارگا ترجمه قیلینیب، دنیاگا کینگ تارقالگان.

فرابی ۱۶۰ دان آرتیق اثر یاراتگان بولسادا، افسوسکه اولاردان بیزگا ۴۰ گا یاقینی ییتیب گیلگان خالاس.

فرابی کمتر و کمسوقوم انسان بولیب، فقیرانه کون کیچیرگان. سرای عالمی بولیشنی ایستاماگان.

عمری آخیردا مصردا، سونگ دمشقدا یاشاب اوشا ییردا وفات ایتگان.

اولوغ شرق عالمینینگ مراثی کیینگی اولادلار اوچون کاتتا حزینه دیر.

Yuqoridagi matnda uchragan munfasil harflar «bir shaklli harflar» deb ham yuritiladi. Bunday deyilishiga sabab bu guruh harflari faqat o‘zidan oldin keladigan harflargagina qo‘shilib yoziladi. Agar o‘zidan keyingi harflarga qo‘shilgudek bo‘lsa, ularning munfasillik xususiyati yo‘qoladi. Bu esa arab

grafikasi qoidalari buzilganligini ko‘rsatadi. Yuqorida aytib o‘tganimizdek bu harflar yettita. Ular quyidagilar:

alif	dol	zol	re	ze	je	vov
ا	د	ذ	ر	ز	ژ	و
a,e,i,o	d	z	r	z	J:	v,o‘,u, va

Munfasil harlar ikki xil yozilish shakliga ega bo‘lib, ba‘zilari satr chizig‘i ustida, ba‘zilari satr chizig‘idan pastga tushirib yoziladi.

Masalan:


.....ذ.....	Alohida
.....ذ.....	So‘z boshida
.....ذ.....	So‘z o‘rtasida
.....ذ.....	So‘z oxirida
.....ذذ.....	Harfiy birikma

.....ر.....	Alohida
.....ر.....	So‘z boshida
.....ر.....	So‘z o‘rtasida
.....ر.....	So‘z oxirida
.....رر.....	Harfiy birikma

5-topshiriq. Xattotlik va xattotlik bosqichlari haqida ma’lumot bering.

Xatotlik (arabcha **خطاط** - kalligraf) – yozuv, xat san’ati (kalligrafiya, husnixat), kitob ko‘chirish kasbi. O‘rta Osiyoda qadimdan rivoj topgan. Yozuv paydo bo‘lgandan keyin maxsus kishilar xattotlik bilan shug‘ullana boshlashgan. Ayniqsa, arab yozuvi tarqalganidan so‘ng xattotlik keng rivoj topgan.

Xattotlik san’ati uslublari to‘g‘risida ko‘p risolalar yaratilgan. Amir Temur hukmronligi davrida nastaliq uslubi yaratilgan, uni yaratgan mashhur xattot Mirali Tabriziy shuningdek, Sultonali Mashhadiy, Majnun ibn Kamoliddin Rafiqiy, Darvesh Muhammad ibn Do‘stmuhammad Buxoriy, Munis Xorazmiy, Ishoqxon To‘rao‘rg‘oniy kabilarning xattotlik haqidagi risolalari bizgacha yetib kelgan. Ularda yozilishicha, xattotlikda yetti xil asosiy xat san’ati mavjud: **suls, muhaqqaq, nasx, tavqe’, riqo, ta’liq, nasta’liq.**



XVII asrda arab yozuvining keng tarqalgan uslublaridan biri ko‘fiy xati ixtiro qilinguncha (ixtirochi Ya‘rab ibn Qahton) O‘rta Osiyoda turli yozuv usullari mavjud bo‘lgan. Masalan, **makkiy, madaniy, basariy** va boshqalar. Bulardan oldinroq **ma‘qaliy** (tik chiziqli) yozuv bo‘lgan. Kufiy yozuvi ko‘pgina obidalarning naqshlarida saqlanib qolgan. Xalifa Muqtadi zamonida yashagan olim ibn Muqla’ (864-934) ni xatti sitta (olti xil yozuv: **suls, nasx, muhaqqaq, rayhoni, tavqe’, riqo**) ixtirochisi deb tan olingan.

Zamonlar o‘tishi bilan kufiyning turli shakllari ixtiro etilgan. Qur‘onning ilk namunalari (masalan, O‘zbekiston Diniy ishlari idorasida saqlanayotgan Usmon qur‘oni) shu yozuvda yozilgan, keyinchalik bu yozuv, asosan, binolarda bezak sifatida qo‘llangan.

Muhaqqaq yozuvi kufiy yozuvining bir oz o‘zgartirilganidir.

Rayhoni xati muhaqqaq yozuviga o‘xshagan, lekin harf shakllari rayhon barglariga o‘xshagani uchun shu nom bilan atalgan.

Nasx yozuvi kufiy va muhaqqaq yozuvlaridan ko‘ra Qur‘on ko‘chirishda ma‘qulroq topilgan.

Tavqe’ buyruq va farmonlar yozishda foydalanilgan.

Riqo yozuvi tavqe’ga ancha yaqin, lekin undan nozikroq. Asosan, maktublarda ishlatilgani, kitobga aloqasi bo‘lmagani uchun parcha (arabcha-ruq’a) qog‘ozlarga nafis qilib yozilgani uchun riqo deb atalgan. Bulardan tashqari, tumor, g‘ubor, shajariy, tug‘ro va boshqa yozuv usullari ham bo‘lgan.

Tug‘ro – imzo qo‘yishda qo‘llanilgan.

Shajariy – harflar daraxt shoxlariga o‘xshab ketadi.

G‘ubor – mayda xat bo‘lib, ixtirochisi Said Qosimdir.

XV asr boshlaridan kitob ko‘chirishda nasta’liq xati rasm bo‘ldi. Navoiy ta’biricha, xattotlar sultoni bo‘lgan Sultonali Mashhadiy nasta’liq xatini ajoyib san’at darajasiga ko‘targan. Kitobatchilikda bosmaxona paydo bo‘lguncha kotib, xattotlar mehnati asosiy rol o‘ynadi. Kitob chiqarish ishlari hukmdorlarning xohishi va mablag‘lari bilan amalga oshirilgan. Bu borada Boysunqur, Alisher Navoiy, Feruz kabi buyuk siymolarning ishlari diqqatga sazovordir.

Xatotlik bosqichlari:

Mufradot – harflarning alohida, so‘z boshi, so‘z o‘rtasi va so‘z oxiridagi ko‘rinishlarini yozish mashqi. Bu bosqichda alifdan boshlab, boshqa ko‘rinishdagi harflarni o‘xshashligiga ko‘ra yozib o‘rganishgan. Bunda o‘quvchilar har bir harf bilan tanishib, uni tanish, o‘qish va yozish malakasiga ega bo‘lishgan. Masalan:

ف ق	ف	ب ت ث پ	ب
ک گ	ک	ج ح خ چ	ح
ل	ل	د ذ	د
م	م	ر ز ژ	ر
ن	ن	س ش	س
و	و	ص ض	ص
ی	ی	ط ظ	ط

Murakkabot – mufradot bosqichida o‘rganilgan harflarni bir-biriga qo‘shib yozish mashq qilinadi. Bunda har bir harfning turli ko‘rinishlari bir-biriga ulanishi yoki ma’lum bir harfning turli ko‘rinishlari boshqa harf ko‘rinishlari bilan o‘zaro bog‘lanishi o‘rganiladi. Masalan:

ببب	للل	ععع	ججج
ففف	ييي	ببب	تتت
سببب	ننن	ررر	ددا

Muqattaot – murakkabot bosqichida o‘rganilgan malaka va ko‘nikmalar yordamida ma’lum so‘z va so‘z birikmalarini ko‘chirib yozish, mustaqil ravishda yozish, shuningdek, fard, qit’a va ruboiylarni ko‘chirish mashq qilingan.

نادر كوز درد بازار احمد مشق دفترى آزار نور ديدا كتاب السواد

Insho – bu bosqichda o‘rganilgan bilimlar asosida jumla va bir necha jumladan iborat matnlar tuzilgan.


وطنى سويماك ايماناندور بيشيكدان قبركاچا علم ايزلا

Xatotlik qurollari:

Qalam (قلم) – qo‘lyozma kitob yaratishdagi eng asosiy yozuv qurollaridan birining nomi. Qalam so‘zi asli yunoncha «qalamos» bo‘lib, yunon tilida qamishni ifodalagan.

Xatotlik ishida qo‘llangan qamish qalam tayyorlash jarayoni ancha murakkab bo‘lgan. Qalam tayyorlash kishidan o‘ziga xos malaka va tajriba talab qilgan. Yasashga mo‘ljallangan qamish turi to‘g‘ri kelgan joydan olinmagan. Ular turli joylarda yetishtirilgan. Xususan, 16 asrning yetuk xattotlaridan bo‘lmish Fatxulloh ibn Ahmadning fikricha, Vosit shahri (Kufa va Basra shaharlari o‘rtasida joylashgan) atrofida yetishgan qamish eng oliynav hisoblangan bo‘lsa, Amudaryo sohillarida o‘sovchi qamish o‘zining sifati bo‘yicha ikkinchi o‘rinni egallagan. Misr va Mozandaron qamishlari esa keyingi o‘rinlarda turgan. Shu nuqtai nazardan qalamni qanchalik bekamu ko‘st va sifatli yasalishi qamishni qayerda o‘sganligi, yo‘g‘onligi, rangi, saqlanishi, ishlov berilishi kabi holatlarga ham juda bog‘liq bo‘lgan. Qamishning yetishgan joyiga ko‘ra qalam turlarini anglatuvchi terminlar

ham joy nomlariga ko'ra yasalgan: *vositiy*, *amuriy*, *misriy*, *mozandaroniy* va boshqalar.



Qog'oz (کاغذ) - qog'ozning yaratilish tarixi miloddan avvalgi VII asrlarga borib taqaladi. Qadimda qog'ozlar papiros daraxtidan, maxsus ishlov berilgan teridan tayyorlangan. Eramizning II asrida Xitoyda qog'oz ishlab chiqarish keng yo'lga qo'yilgan. Xitoyliklar serdaromad sanalgan qog'oz ishlab chiqarishni qanchalik sir tutmasinlar, VII asrning ikkinchi yarmidan e'tiboran Samarqanda

Xitoy qog‘ozi kabi yuqori sifatli qog‘ozlar ishlab chiqarila boshlandi. Chunki Samarqandda qog‘oz ishlab chiqarish uchun kerakli bo‘lgan xom ashyoning barcha turlari: ipak, paxta, kanop, qamish, poxol, tut novdasining po‘sti kabilar mavjud edi. Dastlabki yozuv qog‘ozlari o‘rama shaklda, juda katta hajmda, keyinchalik esa, ularning daftar, bizga yaxshi ma‘lum bo‘lgan sharq qo‘lyozmalari shaklida tayyorlangan.

Siyoh (سیاه) - yozuv ishida rang sifatida qo‘llangan suyuqlik. Bu so‘z fors tilida qora degan ma‘noni ham bildiradi.

Mixrak (محرک)- termini dovot, ya‘ni siyohdondagi siyohni aralashtirishda foydalaniladigan cho‘p. Bu so‘z asli arabcha bo‘lib, harakatga keltiruvchi ma‘nosini ifodalaydi va u «harraka» - حرک - aralashtirmoq, harakatga keltirmoq fe‘lidan yasalgan.

Mistar(مسطر) – kotib tomonidan matnni ko‘chirishda qog‘ozdagi qo‘lyozma satrlarining to‘g‘ri va ravon chiqishini ta‘minlashda ishlatilgan yozuv quroli. Mistarni tayyorlashda qalin karton qog‘oz yoki bir necha varaqlar bir-biriga yopishtirib tayyorlangan qog‘oz olinib, unga yo‘g‘on iplar bir-biridan ma‘lum va teng masofadagi qatorlarda tortilib turadi. Xattot bunday mistarni toza qog‘oz yoki varaqning tagiga qo‘yib qo‘li bilan bosgan va uning natijasida iplarning izi qog‘ozga tushib, botiq chiziqlar paydo bo‘lgan. Kotib ana shu botiq chiziqlar bo‘ylab matnni ko‘chirgan. Mistar so‘zi termin sifatida asosan Alisher Navoiy hamda Bobur asarlarida uchraydi.

Satr (سطر) - qo‘lyozma asarning, umuman, maktub, hujjat kabilarning yozilgan har bir qatori satr termini bilan ifodalangan. Satr so‘zi arabcha bo‘lib, chiziq, yo‘l, qator ma‘nolarini ifodalaydi. O‘zbek tiliga uning, asosan, qator va satr ma‘nolari ko‘chgan va shu ma‘noda qo‘llaniladi.

وطنی سوماق ایماندیر

BIRINCHI MASHG‘ULOT

MAVZU: ESKI O‘ZBEK YOZUVI

ESKI O‘ZBEK YOZUVINING SHAKLLANISH TARIXI

1-topshiriq. Arab yozuvini O‘rta Osiyo xalqlari hayotiga kirib kelishi haqida ma’lumot bering.

2-topshiriq. Eski o‘zbek yozuvining shakllanish tarixi haqida ma’lumot bering.

3-topshiriq. Arab–o‘zbek alifbosi va yozuvning o‘ziga xos xususiyatlari haqida ma’lumot bering.

4-topshiriq. Munfasil harflar va ularning xususiyatlari haqida ma’lumot bering.

5-topshiriq. Muttasil harflar va ularning xususiyatlari haqida ma’lumot bering.

6-topshiriq. Berilgan testni yeching.

1. Arab tili qaysi tillar oilasiga mansub?

A. yunon

B. somiy

S. hind-yevropa

D. slavyan

2. Arab alifbosida nechta harf bor?

A. 32

B. 18

S. 28

D. 34

3. Arab alifbosida nechta unli harf bor?
- A. 3
 - B. 4
 - S. 6
 - D. yo‘q
4. Eski o‘zbek alifbosi qaysi alifboga asoslangan?
- A. fors
 - B. arab
 - S. turk
 - D. mo‘g‘ul
5. Arab-o‘zbek alifbosida nechta harf bor?
- A. 18
 - B. 28
 - S. 32
 - D. 34
6. Alifboda nechta harf yasovchi unsur bor?
- A. 10
 - B. 18
 - S. 20
 - D. 28
7. Alifbodagi harflar yozuvdagi xususiyatiga ko‘ra necha guruhga bo‘linadi?
- A. 2
 - B. 3
 - S. 4
 - D. 5
8. Arab alifbosiga qo‘shilgan harflar nechta?
- A. 7
 - B. 6
 - S. 5
 - D. 4

9. “**Movaraunnahr**” so‘zining ma’nosi qaysi qatorda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

- A. ikki daryo oralig‘i
- B. ikki daryo orasidagi joy
- S. daryo orti nima
- D. daryogacha bo‘lgan joy

10. “**Zafarnoma**” asarini kim yozgan?

- A. Abulqosim Firdavsiy
- B. Zahiriddin Muhammad Bobur
- S. Kamol Ota turk
- D. Sharofiddin Ali Yazdiy

Mashg‘ulotni yoritishda tavsiya etiladigan adabiyotlar.

1. Ashirboyev S., Azimov I., Rahmatov M.va G‘oziyev A. Eski o‘zbek tili va yozuvi praktikumi. T. : «Ijod uyi», 2006 y.
2. Xalilov L. O‘qish kitobi. T.: «O‘qituvchi», 1998 y.
3. Jumaniyozov R. Eski o‘zbek yozuvi. T.: «O‘qituvchi»,1989 y.





IKKINCHI MASHG‘ULOT

MAVZU: ALIF HARFI

1-topshiriq. Eski o‘zbek yozuvining shakllanish tarixi va uning o‘ziga xos xususiyatlari haqida ma’lumot bering.

2-topshiriq. Alifbodagi munfasil harflar va ularning yozilish qoidalari haqida ma’lumot bering.

3-topshiriq. Quyidagi berilgan «alif» harfining yozuvdagi har bir ko‘rinishini 4 qatordan yozing.

so‘z oxirida	so‘z o‘rtasida	so‘z boshida	alohida
			

.....ا.....	Alohida
.....ا.....	So‘z boshida
.....ا.....	So‘z o‘rtasida
.....ا.....	So‘z oxirida
.....ا.....	Harfiy birikma

4-topshiriq. Quyida berilgan so‘zlarni ko‘chirib yozing va harflarning so‘z boshi, so‘z o‘rtasi va so‘z oxiridagi ko‘rinishlarini yozilishiga diqqat qiling.

1. So‘z boshida:

انسان = نسان + ا

2. So‘z o‘rtasida o‘zidan oldingi harf bilan ulangan shakli:

اظهار = ر + ل + اظه

3. So‘z o‘rtasida o‘zidan oldingi harf bilan ulanmagan shakli:

اطراف = ف + ا + اطر

4. So‘z oxirida o‘zidan oldingi harf bilan ulangan shakli:

آسيا = ل + آسيد

5. So‘z oxirida o‘zidan oldingi harf bilan ulanmagan shakli:

نوا = ا + نو

5-topshiriq. ا (alif) harfi, uning o‘ziga xos xususiyatlari. «Alif» harfining «a», «o» unlilarini ifodalashi haqida ma’lumot bering va misollar keltiring.

6-topshiriq. Berilgan testni yeching.

1. Eski o‘zbek alifbosi qaysi alifboga asoslangan?

A. fors

B. arab

S. turk

D. mo‘g‘ul

2. Quyidagi keltirilgan xususiyatlarning qaysi biri eski o‘zbek yozuvi imlosiga tegishli emas?

- A. bosh harflar yo‘q
- B. bo‘g‘in ko‘chirilmaydi
- S. yozuv chapdan o‘ngga qarab yoziladi
- D. qisqa unlillar yozuvda ifoda etiladi

3. Arab yozuviga asoslangan eski o‘zbek alifbosida nechta harf bor?

- A. 29
- B. 30
- S. 31
- D. 32

4. Arab alifbosidagi nechta harf forslar tomonidan kiritilgan?

- A. 3
- B. 4
- S. 5
- D. 6

5. Eski o‘zbek alifbosiga fors alifbosidan kirib kelgan harflar qaysi qatorda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

- A. se, sin, sod, zol
- B. dol, j:e, xe, ze
- S. jim, j:e, ze, lom
- D. gof, pe, chim, j:e

6. Alif harfi yozuvda necha ko‘rinishda bo‘ladi?

- A. 4
- B. 3
- S. 2
- D. 1

7. Alif harfi o‘zlashgan so‘zlarda qachon «a» unlisini ifodalaydi?

- A. madd belgisini olgan vaqtda
- B. alif harfi ustiga zabar belgisi qo‘yilganda
- S. alif harfi ustiga sukun belgisi qo‘yilganda
- D. barcha javoblar to‘g‘ri

8. Alif harfi o‘zlashgan so‘zlarda so‘z boshida qachon «o» unlisini ifodalaydi?

- A. madd belgisini olgan vaqtda
- B. alif harfi ustiga zabar belgisi qo‘yilganda
- S. alif harfi ustiga sukun belgisi qo‘yilganda
- D. alif harfi ustiga pish belgisi qo‘yilganda

9. Alif harfi qachon madd belgisini oladi?

- A. so‘z boshida
- B. so‘z o‘rtasida
- S. so‘z oxirida
- D. ikki undoshning o‘rtasida kelganda

10. Madli alif harfi qanday tovushni ifoda etadi?

- A. u
- B. i
- S. o
- D. a

Mashg‘ulotni yoritishda tavsiya etiladigan adabiyotlar.

1. Ashirboyev S., Azimov I., Rahmatov M. va G‘oziyev A. Eski o‘zbek tili va yozuvi praktikumi. T. : «Ijod uyi», 2006 y.
2. Xalilov L. O‘qish kitobi. T.: «O‘qituvchi», 1998 y.
3. Jumaniyozov R. Eski o‘zbek yozuvi. T.: «O‘qituvchi», 1989 y.

Mashg‘ulotni yoritishda tavsiya etiladigan texnologiyalar.

1. Aqliy hujum.
2. Ven diagrammasi.

3. Oddiy arifmetika o‘yini

Oddiy arifmetika o‘yini mazmuni

O‘yinning maqsadi: Tafakkur va harflarning bir-biriga qo‘shilish yoki qo‘shilmaslik xususiyatlarini o‘zlashtirish.

O‘yinning borishi: Bu o‘yinda alifbodagi ba’zi harflar nomi yozilgan qog‘ozlarni alohida–alohida raqamlar qo‘yilgan konvertlarga solinadi va bu konvertlar o‘quvchilarga tarqatiladi. Raqamlangan konvertlari bor o‘quvchilar konvertlarni ochadilar va uning ichidagi harfning nomini o‘qiydilar va unga to‘liq ta’rif beradi hamda uning kerakli shaklini doskaga yozadi. Raqamli konvert egalari o‘zlarining konvertlaridagi raqamlar tartibiga asoslangan holda ketma-ket ravishda taxtaga chiqadilar va harflarning kerakli shakllarini «+» ishorasi bilan bir-biriga qo‘shilish jarayonini yozadilar. So‘ngi o‘quvchi esa barobar ishorasini yozgach, harflarning barchasiga umumiy ravishda ta’rif beradi va harflarni umumlashishidan hosil bo‘lgan so‘zni taxtaga yozadi. Yozilgan so‘z to‘g‘risida, uning (agar o‘zlashgan so‘z bo‘lsa) tarjimai va mazmuni haqida konvertda ma’lumot bo‘ladi. Masalan:

کتاب = ب + ا + ت + س

«Kitob» so‘zi arabcha so‘z bo‘lib, bu so‘z arab tilidagi «kataba» ya’ni, «yozmoq» fe’lidan olingan. «Kitob» so‘zi «kataba» fe’lining «fiolun» qolipi asosida yasalgan. Ma’nosi «kitob»dir. Bu so‘zning o‘zak harflari kof, te va be harflaridir.





Bu o‘yinni konvertsiz ham bajarish mumkin. Bunda o‘qituvchi ma’lum bir harflarni taxtaga yozadi va talabalar ulardan foydalangan holda so‘z yasashi kerak. Agar hosil bo‘lgan so‘z o‘zlashgan so‘z bo‘lsa talaba uning uning tarjimai va ma’nosini aytib beradi. Agarda ayta olmasa o‘qituvchi tomonidan bu so‘zning ma’no va tarjimalari bayon qilinadi.

Bu o‘yinni yakka tartibda, juftlikda, kichik guruhlarda yoki komandalarga bo‘lingan holda o‘ynashlari mumkin. Bu o‘yinda asosan harflarning shakllarini bir-biriga to‘g‘ri qo‘shilishini o‘rganish bo‘lganligi uchun harfiy birikma (ikki, uch, to‘rt va ko‘p harfdan tashkil topgan) ni ham misol tariqasida keltirishimiz mumkin.

UCHINCHI MASHG‘ULOT

MAVZU: DOL VA ZOL HARFLARI

1-topshiriq. Quyidagi berilgan «dol» harfining yozuvdagi har bir ko‘rinishini 4 qatordan yozing.

so‘z oxirida	so‘z o‘rtasida	so‘z boshida	alohida
			

.....د.....	Alohida
.....د.....	So‘z boshida
.....د.....	So‘z o‘rtasida
.....د.....	So‘z oxirida
.....دد.....	Harfiy birikma

2-topshiriq. Quyida berilgan so‘zlarni ko‘chirib yozing va harflarning so‘z boshi, so‘z o‘rtasi va so‘z oxiridagi ko‘rinishlarini yozilishiga diqqat qiling.

1. So‘z boshida:

$$\text{دال} = \text{ال} + \text{د}$$

2. So‘z o‘rtasida o‘zidan oldingi harf bilan ulangan shakli:

$$\text{صندوق} = \text{وق} + \text{د} + \text{ص}$$

3. So‘z o‘rtasida o‘zidan oldingi harf bilan ulanmagan shakli:

$$\text{قودوق} = \text{وق} + \text{د} + \text{قو}$$





4. So‘z oxirida o‘zidan oldingi harf bilan ulangan shakli:

$$\text{درامد} = \text{د} + \text{رام}$$

5. So‘z oxirida o‘zidan oldingi harf bilan ulanmagan shakli:

$$\text{مقصود} = \text{د} + \text{مقو}$$

3-topshiriq. Quyidagi berilgan «zol» harfining yozuvdagi har bir ko‘rinishini 4 qatordan yozing.

so‘z oxirida	so‘z o‘rtasida	so‘z boshida	alohida
			

.....ذ.....	Alohida
.....ذ.....	So‘z boshida
.....ذ.....	So‘z o‘rtasida
.....ذ.....	So‘z oxirida
.....ذذ.....	Harfiy birikma

4-topshiriq.Quyida berilgan so‘zlarni ko‘chirib yozing va harflarning so‘z boshi, so‘z o‘rtasi va so‘z oxiridagi ko‘rinishlarini yozilishiga diqqat qiling.

1. So‘z boshida:

ذهن = هن + ذ

2. So‘z o‘rtasida o‘zidan oldingi harf bilan ulangan shakli:

تذكيره = كيره + ذ + ت

3. So‘z o‘rtasida o‘zidan oldingi harf bilan ulanmagan shakli:

اذيت = يت + ذ + ا

4. So‘z oxirida o‘zidan oldingi harf bilan ulangan shakli:

لذيد = ذ + لذ

4. So‘z oxirida o‘zidan oldingi harf bilan ulanmagan shakli:

نفوذ = ذ + نفو

5-topshiriq. Yozuvda «dol» harfining so‘z boshi, so‘z o‘rtasi va so‘z oxirida ifodalanishiga misollar keltiring.

6-topshiriq. Yozuvda «zol» harfining so‘z boshi, so‘z o‘rtasi va so‘z oxirida undosh tovushlar ifodalanishiga misollar keltiring.

7-topshiriq. Berilgan testni yeching.

1. «Dol» harfi yozuvda necha ko‘rinishli bo‘ladi?

- A. 1
- B. 3
- S. 2
- D. 4

2. «Zol» harfi yozuvda necha ko‘rinishli bo‘ladi?

- A. 1
- B. 3
- S. 2
- D. 4

3. Qaysi qatorda munfasil harflarning xususiyatlari berilgan?

- A) o‘zidan keyingi harfga qo‘shilmaydi.
- B) o‘zidan keyingi harfga qo‘shiladi.
- C) o‘zidan oldingi harfga qo‘shilmaydi
- D) hamma javoblar to‘g‘ri

4. Qaysi qatorda muttasil harflarning xususiyatlari berilgan?

- A) o‘zidan keyingi harfga qo‘shilmaydi.
- B) o‘zidan keyingi harfga qo‘shiladi.
- C) o‘zidan oldingi harfga qo‘shilmaydi.
- D) hamma javoblar to‘g‘ri

5. Eski o‘zbek alifbosida munfasil harflar nechta va ular qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

- A) 5 ta: alif, dol, zol, ayn, g‘ayn
- B) 6 ta: alif, re, jim, chim. xe, gof
- C) 7 ta: alif, dol, zol, re, ze, j:e, vov
- D) 8 ta: alif, to, zo, sod, zod, sin, shin, j:e

6. “**dod**” so‘zi qaysi javobda to‘g‘ri yozilgan?

- A. داد
- B. دآد
- S. دالد
- D. دد

7. – **da** qo‘shimchasi qaysi javobda to‘g‘ri yozilgan?

- A. دآ
- B. داا
- S. دا
- D. د

8. “**dada**” so‘zi qaysi javobda to‘g‘ri yozilgan?

- A. دادآ
- B. دادا
- S. دآدآ
- D. ددآ

9. “**ado**” so‘zi qaysi javobda to‘g‘ri yozilgan?

- A. آدآ
- B. اادا
- S. آدا
- D. ادا

10. “**od**” harfiy birikmasi qaysi qatorda to‘g‘ri yozilgan?

- A. اد
- B. ااد
- S. د
- D. آد

Mashg‘ulotni yoritishda tavsiya etiladigan adabiyotlar.

1. Ashirboyev S., Azimov I., Rahmatov M. va G‘oziyev A. Eski o‘zbek tili va yozuvi praktikumi. T. : «Ijod uyi», 2006 y.
2. Xalilov L. O‘qish kitobi. T.: «O‘qituvchi», 1998 y.
3. Jumaniyozov R. Eski o‘zbek yozuvi. T.: «O‘qituvchi», 1989 y.





Mashg‘ulotni yoritishda tavsiya etiladigan texnologiyalar.

1. Aqliy hujum.
2. Ven diagrammasi.
3. Oddiy arifmetika o‘yini

TO‘RTINCHI MASHG‘ULOT

MAVZU: VOV HARFI

1-topshiriq. Quyidagi berilgan «vov» harfining yozuvdagi har bir ko‘rinishini 4 qatordan yozing.

so‘z oxirida	so‘z o‘rtasida	so‘z boshida	alohida
			

.....و.....	Alohida
.....و.....	So‘z boshida
.....و.....	So‘z o‘rtasida
.....و.....	So‘z oxirida
.....وو.....	Harfiy birikma

2-topshiriq. Quyida berilgan so‘zlarni ko‘chirib yozing va harflarning so‘z boshi, so‘z o‘rtasi va so‘z oxiridagi ko‘rinishlarini yozilishiga diqqat qiling.

1. So‘z boshida:

وطن = طن + و

2. So‘z o‘rtasida o‘zidan oldingi harf bilan ulangan shakli:

كوز = ز + و + ك

3. So‘z o‘rtasida o‘zidan oldingi harf bilan ulanmagan shakli:

پرواز = از + و + پر

4. So‘z oxirida o‘zidan oldingi harf bilan ulangan shakli:

بانو = و + بان

5. So‘z oxirida o‘zidan oldingi harf bilan ulanmagan shakli:

اولو = و + اول

3-topshiriq. Yozuvda «vov» harfining so‘z boshi, so‘z o‘rtasi va so‘z oxirida v undosh tovushini ifodalashini tushuntiring va misollar keltiring.

4-topshiriq. «Alif» va «vov» harfiy birikmalari orqali unli tovushlar ifodalashini tushuntiring va misollar keltiring.

5-topshiriq. «Vov» harfi so‘z o‘rtasi va so‘z oxirida unli tovushlar ifodalashini tushuntiring va misollar keltiring.

6-topshiriq. Berilgan testni yeching.

1. “ov” so‘zi qaysi javobda to‘g‘ri yozilgan?

- A. او
- B. الو
- S. آو
- D. اوو

2. “dud” so‘zi qaysi javobda to‘g‘ri yozilgan?

- A. دود
- B. دوود
- S. داود
- D. دواد

3. **u** ko‘rsatish olmoshi qaysi javobda to‘g‘ri yozilgan?

- A. و
- B. وا
- S. او
- D. ا

4. **“vov”** so‘zi qaysi javobda to‘g‘ri yozilgan?

- A. وو
- B. ووو
- S. وآو
- D. واو

5. **“dov”** so‘zi qaysi javobda to‘g‘ri yozilgan?

- A. داو
- B. دو
- S. داو
- D. دوو

6. vov harfi so‘z boshida kelsa qaysi tovushni ifoda etadi?

- A. u
- B. o‘
- S. v
- D. barcha javoblar to‘g‘ri

7. vov harfi so‘z boshida alif bilan birga kelsa qaysi tovushni ifoda etadi?

- A. u
- B. o‘
- S. v
- D. barcha javoblar to‘g‘ri

8. vov harfi so‘z o‘rtasida unidan so‘ng kelsa qanday o‘qiladi?

- A. u
- B. o‘
- S. v
- D. barcha javoblar to‘g‘ri

9. vov harfi so‘z o‘rtasida undoshdan so‘ng kelsa qanday o‘qiladi?

- A. u
- B. o‘
- S. v
- D. barcha javoblar to‘g‘ri

10. “va” bog‘lovchisi yozuvda qanday ifodalanadi?

- A. vov harfi yordamida
- B. vov va alif harfiy birikmalari yordamida
- S. vov va hoyi havvaz harfiy birikmalari yordamida
- D. alif va vov harfiy birikmalari yordamida

Mashg‘ulotni yoritishda tavsiya etiladigan adabiyotlar.

1. Ashirboyev S., Azimov I., Rahmatov M. va G‘oziyev A. Eski o‘zbek tili va yozuvi praktikumi. T. : «Ijod uyi», 2006 y.
2. Xalilov L. O‘qish kitobi. T.: «O‘qituvchi», 1998 y.
3. Jumaniyozov R. Eski o‘zbek yozuvi. T.: «O‘qituvchi», 1989 y.

Mashg‘ulotni yoritishda tavsiya etiladigan texnologiyalar.

1. Aqliy hujum.
2. Ven diagrammasi.
3. Oddiy arifmetika o‘yini

BESHINCHI MASHG'ULOT

MAVZU: RE, ZE VA J:E HARFLARI

1-topshiriq. Quyidagi berilgan «re» harfining yozuvdagi har bir ko'inishini 4 qatordan yozing.

so'z oxirida	so'z o'rtasida	so'z boshida	alohida

.....ر.....	Alohida
.....ر.....	So'z boshida
.....ر.....	So'z o'rtasida
.....ر.....	So'z oxirida
.....رر...	Harfiy birikma

2-topshiriq.Quyida berilgan so'zlarni ko'chirib yozing va harflarning so'z boshi, so'z o'rtasi va so'z oxiridagi ko'rinishlarini yozilishiga diqqat qiling.

1. So'z boshida:

ر + است = راست

2. So'z o'rtasida o'zidan oldingi harf bilan ulanmagan shakli:

د + ر + مان = درمان

3. So'z o'rtasida o'zidan oldingi harf bilan ulangan shakli:

ش + ر + اب = شراب





4. So'z oxirida o'zidan oldingi harf bilan ulangan shakli:

ر + بازا = بازار

5. So‘z oxirida o‘zidan oldingi harf bilan ulanmagan shakli:

هنر = ر + هنز

3-topshiriq. Quyidagi berilgan «ze» harfining yozuvdagi har bir ko‘rinishini 4 qatordan yozing.

so‘z oxirida	so‘z o‘rtasida	so‘z boshida	alohida
			

.....ز.....	Alohida
.....ز.....	So‘z boshida
.....ز.....	So‘z o‘rtasida
.....ز.....	So‘z oxirida
.....زز.....	Harfiy birikma

4-topshiriq. Quyida berilgan so‘zlarni ko‘chirib yozing va harflarning so‘z boshi, so‘z o‘rtasi va so‘z oxiridagi ko‘rinishlarini yozilishiga diqqat qiling.

1. So‘z boshida:

زاغ = اغ + ز

2. So‘z o‘rtasida o‘zidan oldingi harf bilan ulangan shakli:

قىزىق = يق + ز + قيد

3. So‘z o‘rtasida o‘zidan oldingi harf bilan ulanmagan shakli:

اوزوم = وم + ز + او





4. So‘z oxirida o‘zidan oldingi harf bilan ulangan shakli:

آغيز = ز + آغيد

5. So‘z oxirida o‘zidan oldingi harf bilan ulanmagan shakli:

ساز = ز + سا

5-topshiriq. Quyidagi berilgan «j:e» harfining yozuvdagi har bir ko‘rinishini 4 qatordan yozing.

so‘z oxirida	so‘z o‘rtasida	so‘z boshida	alohida
			

.....ژ.....	Alohida
.....ژ.....	So‘z boshida
.....ژ.....	So‘z o‘rtasida
.....ژ.....	So‘z oxirida
.....ژژ.....	Harfiy birikma

6-topshiriq.Quyida berilgan so‘zlarni ko‘chirib yozing va harflarning so‘z boshi, so‘z o‘rtasi va so‘z oxiridagi ko‘rinishlarini yozilishiga diqqat qiling.

1. So‘z boshida:

ژاله = اله + ژ

2. So‘z o‘rtasida o‘zidan oldingi harf bilan ulangan shakli:

مژده = ده + ژ + م

3. So‘z o‘rtasida o‘zidan oldingi harf bilan ulanmagan shakli:

واژه = ه + ژ + وا

7-topshiriq. Yozuvda «re», «ze» va «j:e» harflarining so‘z boshi, so‘z o‘rtasi va so‘z oxirida ifodalanishiga misollar keltiring.

8-topshiriq. Berilgan testni yeching.

1. *re, ze, je* harflari yozuvda necha ko‘rinishli bo‘ladi?

- A. 1
- B. 3
- S. 2
- D. 4

2. “**oz**” so‘zi qaysi javobda to‘g‘ri yozilgan?

- A. از
- B. الاز
- S. آز
- D. آذ

3. “**zod**” so‘zi qaysi javobda to‘g‘ri yozilgan?

- A. زاد
- B. ذاد
- S. زآد
- D. ذآد

4. “**ozod**” so‘zi qaysi javobda to‘g‘ri yozilgan?

- A. آزاد
- B. ازاد
- S. آزاد
- D. الازآد

5. “**ozor**” so‘zi qaysi javobda to‘g‘ri yozilgan?

- A. آزار
- B. آزر
- S. آزار
- D. آزآر

6. “oro” so‘zi qaysi javobda to‘g‘ri yozilgan?

- A. ارا
- B. آرا
- S. آراا
- D. الرا

7. “orzu” so‘zi qaysi javobda to‘g‘ri yozilgan?

- A. آرزو
- B. آرزوو
- S. الازوو
- D. آروزو

8. “ovoz” so‘zi qaysi javobda to‘g‘ri yozilgan?

- A. اواز
- B. آواز
- S. آوواز
- D. آواز

9. “ajdar” so‘zi qaysi javobda to‘g‘ri yozilgan?

- A. اجدر
- B. اژدر
- S. آژدر
- D. اژيدر

10. “dor” so‘zi qaysi javobda to‘g‘ri yozilgan?

- A. دور
- B. دار
- S. دآر
- D. دارر

Mashg‘ulotni yoritishda tavsiya etiladigan adabiyotlar.

1. Ashirboyev S., Azimov I., Rahmatov M. va G‘oziyev A. Eski o‘zbek tili va yozuvi praktikumi. T. : «Ijod uyi», 2006 y.
2. Xalilov L. O‘qish kitobi. T.: «O‘qituvchi», 1998 y.
3. Jumaniyozov R. Eski o‘zbek yozuvi. T.: «O‘qituvchi», 1989 y.

Mashg‘ulotni yoritishda tavsiya etiladigan texnologiyalar.

1. Aqliy hujum.
2. Ven diagrammasi.
3. Oddiy arifmetika o‘yini

OLTINCHI MASHG‘ULOT

MAVZU: ESKI O‘ZBEK YOZUVIDA UNLILARNING IFODALANISHI ARAB SATR USTI BELGILARI

1-topshiriq. «Zabar» («fatha») belgisi haqida ma’lumot bering va misollar keltiring.

2-topshiriq. «Zir» («kasra») belgisi haqida ma’lumot bering va misollar keltiring.

3-topshiriq. «Pish» («zamma») belgisi haqida ma’lumot bering va misollar keltiring.

4-topshiriq. Arab satr ustki belgilari («mad», «tanvin», «tashdid», «sukun», «hamza», «vasla») haqida ma’lumot bering va ularning yozuvda qo‘llanishi hamda ular ishtirok etgan misollar keltiring.

5-topshiriq. Berilgan testni yeching.

1. O‘zlashgan so‘zlarda qisqa «a» unlisi so‘z boshida qanday ifodalanadi?

- A. Alif va ayn harflari ustiga zabar belgisi qo‘yish orqali
- B. Alif va ayn harflari ostiga kasra belgisi qo‘yish orqali
- S. Alif va ayn harflari ustiga madd belgisi qo‘yish orqali
- D. Alif va ayn harflari ustiga pish belgisi qo‘yish orqali

2. O‘zlashgan so‘zlarda qisqa «a» unlisi so‘z o‘rtasida qanday ifodalanadi?

- A. O‘zidan oldingi undosh harf ustiga madd belgisi qo‘yish orqali
- B. O‘zidan keyingi undosh harf ustiga fatha belgisi qo‘yish orqali
- S. O‘zidan oldingi undosh harf ostiga zir belgisi qo‘yish orqali
- D. O‘zidan keyingi undosh harf ustiga zabar belgisi qo‘yish orqali

3. O‘zlashgan so‘zlarda qisqa «a» unlisi so‘z oxirida qanday ifodalanadi?
- A. Alif harfi orqali
 - B. Hoyi havvaz harfi orqali
 - S. Ayn harfi orqali
 - D. Zabar belgisi orqali
4. O‘zlashgan so‘zlarda qisqa «i» unlisi so‘z boshida qanday ifodalanadi?
- A. Alif va ayn harflari ustiga zabar belgisi qo‘yish orqali
 - B. Alif va ayn harflari ustiga pish belgisi qo‘yish orqali
 - S. Alif va ayn harflari ustiga madd belgisi qo‘yish orqali
 - D. Alif va ayn harflari ostiga kasra belgisi qo‘yish orqali
5. O‘zlashgan so‘zlarda qisqa «i» unlisi so‘z o‘rtasida qanday ifodalanadi?
- A. O‘zidan oldingi undosh harf ustiga pish belgisi qo‘yish orqali
 - B. O‘zidan keyingi undosh harf ostiga zir belgisi qo‘yish orqali
 - S. O‘zidan oldingi undosh harf ostiga kasra belgisi qo‘yish orqali
 - D. O‘zidan keyingi undosh harf ustiga zabar belgisi qo‘yish orqali
6. O‘zlashgan so‘zlarda qisqa «u» unlisi so‘z boshida qanday ifodalanadi?
- A. Alif yoki ayn harflari ustiga zabar belgisi qo‘yish orqali
 - B. Alif yoki ayn harflari ustiga pish belgisi qo‘yish orqali
 - S. Alif yoki ayn harflari ustiga madd belgisi qo‘yish orqali
 - D. Alif yoki ayn harflari ostiga zir belgisi qo‘yish orqali
7. O‘zlashgan so‘zlarda qisqa «u» unlisi so‘z o‘rtasida qanday ifodalanadi?
- A. O‘zidan oldingi undosh harf ustiga pish belgisi qo‘yish orqali
 - B. O‘zidan keyingi undosh harf ustiga pish belgisi qo‘yish orqali
 - S. O‘zidan oldingi undosh harf ostiga kasra belgisi qo‘yish orqali
 - D. O‘zidan keyingi undosh harf ustiga zabar belgisi qo‘yish orqali

8. «Sukun» belgisining vazifasi qaysi qatorda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

- A. ikkilantirish
- B. to‘xtash
- S. cho‘zish
- D. hech narsani ifodalamaydi

9. «Tashdid» belgisining vazifasi qaysi qatorda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

- A. ikkilantirish
- B. to‘xtash
- S. cho‘zish
- D. hech narsani ifodalamaydi

10. «Madd» belgisining vazifasi qaysi qatorda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

- A. ikkilantirish
- B. to‘xtash
- S. cho‘zish
- D. hech narsani ifodalamaydi





Mashg‘ulotni yoritishda tavsiya etiladigan adabiyotlar.

1. Ashirboyev S., Azimov I., Rahmatov M. va G‘oziyev A. Eski o‘zbek tili va yozuvi praktikumi. T. : «Ijod uyi», 2006 y.
2. Xalilov L. O‘qish kitobi. T.: «O‘qituvchi», 1998 y.
3. Jumaniyozov R. Eski o‘zbek yozuvi. T.: «O‘qituvchi», 1989 y.

❧ ----- **YETTINCHI MASHG‘ULOT** ----- ❧

MAVZU: BE, PE, TE VA SE HARFLARI

1-topshiriq. Quyidagi berilgan «be» harfining yozuvdagi har bir ko‘rinishini 4 qatordan yozing.

so'z oxirida	so'z o'rtasida	so'z boshida	alohida
			

.....ب.....	Alohida
.....ب.....	So'z boshida
.....ب.....	So'z o'rtasida
.....ب.....	So'z oxirida
.....بب.....	Harfiy birikma
.....ببب.....	Harfiy birikma

2-topshiriq. Quyida berilgan so'zlarni ko'chirib yozing va harflarning so'z boshi, so'z o'rtasi va so'z oxiridagi ko'rinishlarini yozilishiga diqqat qiling.

1. So'z boshida:

ب + ولاق = بولاق

2. So'z o'rtasida o'zidan oldingi va keyingi harflar bilan ulangan shakli:

ك + ب + وتر = كبوتر

3. So'z o'rtasida o'zidan oldingi harf bilan ulanmagan shakli:

با + ب + ور = بابور





4. So'z oxirida o'zidan oldingi harf bilan ulangan shakli:

مكت + ب = مکتب

5. So'z oxirida o'zidan oldingi harf bilan ulanmagan shakli:

ضر + ب = ضرب

3-topshiriq. Quyidagi berilgan «pe» harfining yozuvdagi har bir ko'rinishini 4 qatordan yozing.

so'z oxirida	so'z o'rtasida	so'z boshida	alohida
			

.....پ.....	Alohida
.....پ.....	So'z boshida
.....پ.....	So'z o'rtasida
.....پ.....	So'z oxirida
.....پپ.....	Harfiy birikma
.....پپپ.....	Harfiy birikma

4-topshiriq.Quyida berilgan so'zlarni ko'chirib yozing va harflarning so'z boshi, so'z o'rtasi va so'z oxiridagi ko'rinishlarini yozilishiga diqqat qiling.

1. So'z boshida:

$$\text{پارلاق} = \text{پ} + \text{ارلاق}$$

2. So'z o'rtasida o'zidan oldingi va keyingi harflar bilan ulangan shakli:

$$\text{آشپز} = \text{ز} + \text{پ} + \text{آش}$$

3. So'z o'rtasida o'zidan oldingi harf bilan ulanmagan shakli:

$$\text{قاپلان} = \text{لان} + \text{پ} + \text{قا}$$





4. So'z oxirida o'zidan oldingi harf bilan ulangan shakli:

$$\text{ايپ} = \text{پ} + \text{اي}$$

5. So'z oxirida o'zidan oldingi harf bilan ulanmagan shakli:

$$\text{كوپ} = \text{پ} + \text{كو}$$

5-topshiriq. Quyidagi berilgan «te» harfining yozuvdagi har bir ko'rinishini 4 qatordan yozing.

so‘z oxirida	so‘z o‘rtasida	so‘z boshida	alohida
			

.....ت.....	Alohida
.....ت.....	So‘z boshida
.....ت.....	So‘z o‘rtasida
.....ت.....	So‘z oxirida
.....تت.....	Harfiy birikma
.....تتت.....	Harfiy birikma

6-topshiriq.Quyida berilgan so‘zlarni ko‘chirib yozing va harflarning so‘z boshi, so‘z o‘rtasi va so‘z oxiridagi ko‘rinishlarini yozilishiga diqqat qiling.

1. So‘z boshida ko‘rinishi:

ت + يمير = تيمير

2. So‘z o‘rtasida o‘zidan oldingi va keyingi harflar bilan ulangan shakli:

مك + ت + وب = مكتوب

3. So‘z o‘rtasida o‘zidan oldingi harf bilan ulanmagan shakli:

تر + ت + يب = ترتيب





4. So‘z oxirida ulangan shakli:

تخ + ت = تخت

5. So‘z oxirida o‘zidan oldingi harf bilan ulanmagan shakli:

قنا + ت = قنات

7-topshiriq. Quyidagi berilgan «se» harfining yozuvdagi har bir ko‘rinishini 4 qatordan yozing.

so‘z oxirida	so‘z o‘rtasida	so‘z boshida	alohida
			

.....ث.....	Alohida
.....ث.....	So‘z boshida
.....ث.....	So‘z o‘rtasida
.....ث.....	So‘z oxirida
.....ثث.....	Harfiy birikma
.....ثثث.....	Harfiy birikma

8-topshiriq. Quyida berilgan so‘zlarni ko‘chirib yozing va harflarning so‘z boshi, so‘z o‘rtasi va so‘z oxiridagi ko‘rinishlarini yozilishiga diqqat qiling.

1. So‘z boshida ko‘rinishi:

ث = ثانيه

2. So‘z o‘rtasida o‘zidan oldingi va keyingi harflar bilan ulangan shakli:

مثال = لال + ث + م

3. So‘z o‘rtasida o‘zidan oldingi harf bilan ulanmagan shakli:

اثر = ر + ث + ا

4. So‘z oxirida o‘zidan oldingi harf bilan ulangan shakli:

حديث = ث + حدي

5. So‘z oxirida o‘zidan oldingi harf bilan ulanmagan shakli:

مرات = ث + مرا

9-topshiriq. Yozuvda «be», «pe», «te» va «se» harflarining so‘z boshi, so‘z o‘rtasi va so‘z oxirida ifodalanishiga misollar keltiring.

10-topshiriq. Berilgan testni yeching.

1. **be** harfiga qaysi harflar shakldoshligi to‘g‘ri berilgan qatorni toping?

- A. pe, sin, te
- B. pe, se, chim
- S. pe, te, se
- D. pe, to, ze

2. **“bod”** so‘zi qaysi javobda to‘g‘ri yozilgan?

- A. باد
- B. باد
- S. بآد
- D. بد

3. **“sabot”** so‘zi qaysi javobda to‘g‘ri yozilgan?

- A. سبات
- B. صبات
- S. ثبات
- D. ثبيات

4. **“po”** so‘zi qaysi javobda to‘g‘ri yozilgan?

- A. پآ
- B. پاا
- S. پا
- D. پوا

5. **“tor”** so‘zi qaysi javobda to‘g‘ri yozilgan?

- A. تار
- B. طار
- S. تار
- D. تآر

6. Qaysi qatorda munfasil harflarning xususiyati berilgan?
- A. o‘zidan keyingi harfga qo‘shilmaydi.
 - B. o‘zidan keyingi harfga qo‘shiladi.
 - S. o‘zidan oldingi harfga qo‘shilmaydi
 - D. har ikki tomondan ham birikadi
7. Qaysi qatorda muttasil harflarning xususiyati to‘g‘ri ko‘rsatilgan?
- A. o‘zidan keyingi harfga qo‘shilmaydi.
 - B. o‘zidan keyingi harfga qo‘shiladi.
 - S. o‘zidan oldingi harfga qo‘shilmaydi.
 - D. har ikki tomondan ham birikadi
8. Eski o‘zbek alifbosida munfasil harflar nechta va ularning nomlanishi qaysi qatorda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?
- A. 5 ta: alif, dol, zol, ayn, g‘ayn, fe, qof
 - B. 6 ta: alif, re, jim, chim. xe, gof, vov
 - S. 7 ta: alif, dol, zol, re, ze, je, vov
 - D. 8 ta alif, to, zo, sod, zod, sin, shin
9. Munfasil harflar yozuvda ko‘rinishi qaysi qatorda to‘g‘ri berilgan?
- A. 2 ta
 - B. 3 ta
 - S. 4 ta
 - D. 5 ta
10. Muttasil harflar yozuvda ko‘rinishi qaysi qatorda to‘g‘ri berilgan?
- A. 2 ta
 - B. 3 ta
 - S. 4 ta
 - D. 5 ta

Mashg‘ulotni yoritishda tavsiya etiladigan adabiyotlar.

1. Ashirboyev S., Azimov I., Rahmatov M. va G‘oziyev A. Eski o‘zbek tili va yozuvi praktikumi. T. : «Ijod uyi», 2006 y.
2. Xalilov L. O‘qish kitobi. T.: «O‘qituvchi», 1998 y.
3. Jumaniyozov R. Eski o‘zbek yozuvi. T.: «O‘qituvchi», 1989 y.

Mashg‘ulotni yoritishda tavsiya etiladigan texnologiyalar.

1. Aqliy hujum.
2. Oddiy arifmetika o‘yini
3. Blits o‘yini.

Talabanning joriy ya’ni kundalik baholash uchun mo‘ljallangan Blits o‘yini

«Manashu muttasil harf» nomli blits o‘yini

T/r	Harflar	Talabanning javobi	To‘g‘ri javob	Javob uchun ajratilgan ball
1	ا			
2	د			
3	ب			
4	پ			
5	ر			
6	ث			
7	ذ			
8	چ			
9	ن			
10	ز			
11	ع			
12	ل			
13	ى			
14	ن			
15	م			
<i>Mehnatingiz mahsuli muborak bo‘lsin!</i>				

O‘yin qoidasi: 1-ustunda harflarning tartib raqamlari berilgan. 2-ustunda harflar berilgan. Talabanning vazifasi 2-ustundagi harflar ichidan munfasil harflarni topishi va shu harflar to‘g‘risiga 3-ustundagi katakka + alomatini, munfasil

bo‘lmagan harflarga esa – alomatini qo‘yishi lozim. Talabalar bu vazifani bajarib bo‘lishgach o‘qituvchi to‘g‘ri javoblarni aytadi, talabalar esa o‘z javoblarini tekshiradilar va to‘g‘ri javoblar ustuniga + yoki – alomatlarini qo‘yadi. Javoblar uchun ajratilgan ballar ustuniga har bir to‘g‘ri javob uchun 0.1 (yoki 0,3, 0,4, 0,5) ball, noto‘g‘ri javob uchun 0 ball belgilanib, talaba esa, bu ballarni javob uchun ajratilgan ball grafasiga qo‘yib boradi. Talaba ishni nihoyasiga yetkazgach, ballar umumlashtiriladi. Talaba barcha javoblarni to‘g‘ri topsa 1 (yoki 3, 4, 5) ballni qo‘lga kiritadi. Har bir mashg‘ulot uchun ajratilgan eng yuqori ball 1 (yoki 3, 4, 5) ballni tashkil etadi.

-----SAKKIZINCHI MASHG‘ULOT-----

MAVZU: YO HARFI

1-topshiriq. Quyidagi berilgan «yo» harfining yozuvdagi har bir ko‘rinishini 4 qatordan yozing.

so‘z oxirida	so‘z o‘rtasida	so‘z boshida	alohida

.....ن.....	Alohida
.....ن.....	So‘z boshida
